

The Importance of Education (Upbringing) in Developing High Talent in Youth

Numonova Dildor Umurzoqovna

PhD (in Pedagogical Sciences), Associate Professor, Department of Pedagogy,
Navoi State University (NavSU)

Rahmonova Sabina Asliddin qizi

Master's Student in "Theory and History of Pedagogy"

Annotation: this article highlights the crucial importance of upbringing in the formation and development of high talent in young people. In addition to the manifestation of talent as a natural ability, the role of the Family, Educational Institutions and the social environment in its implementation and improvement is scientifically and pedagogically analyzed.

Keywords: upbringing, talent, youth, ability, intellectual potential, creativity, spiritual and moral education, motivation, motivation, educational system, family environment, social environment, personality maturation, innovative thinking, harmonious generation.

Yoshlarda yuqori iste'dodga ega bo'lishda tarbiyaning ahamiyati

NavDU "Pedagogika" kafedrası f.f.f.d, dots

Numonova Dildor Umurzoqovna,

"Pedagogika nazariyasi va tarixi" magistranti

Rahmonova Sabina Asliddin qizi

Ключевые слова: воспитание, талант, молодежь, способности, интеллектуальный потенциал, творчество, духовно-нравственное воспитание, мотивация, мотивация, система образования, семья среда, социальная среда, созревание личности, новаторское мышление, гармоничное поколение.

Аннотация: В данной статье освещается решающее значение воспитания в формировании и развитии высоких талантов у молодежи. В ней наряду с проявлением одаренности как природной способности научно-педагогически анализируется роль семьи, образовательных учреждений, социальной среды в ее проявлении и совершенствовании.

Kalit soʻzlar: Tarbiya, isteʼdod, yoshlar, qobiliyat, intellektual salohiyat, ijodkorlik, maʼnaviy-axloqiy tarbiya, motivatsiya, ragʻbatlantirish, taʼlim tizimi, oila muhit, ijtimoiy muhit, shaxs kamoloti, innovatsion fikrlash, barkamol avlod.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarda yuqori isteʼdodning shakllanishi va rivojlanishida tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyati yoritiladi. Unda isteʼdodning tabiiy qobiliyat sifatida namoyon boʻlishi bilan bir qatorda, uni yuzaga chiqarish va takomillashtirishda oila, taʼlim muassasalari hamda ijtimoiy muhitning oʻrni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etiladi.

Oʻzbekistonni bugungi zamonaviy oʻzgarishlardagi uchunchi renessans poydevorini mustahkamlash taʼlim-tarbiya tizimidagi asosiy vazifalardan biridir. Yoshlarga yaratilayotgan qulay imkoniyatlardan toʻla foydalanish bu oʻz vaqtida bilim olish, tarbiyaviy jarayonlarda yuksak darajadagi odob-axloq normalariga amal qilish, meʼyoriy koʻrsatkichlarga ega boʻlishdir. Prezidentimiz tomonidan va vazirliklar tomonidan chiqarayotgan qonunlari, buyuk maqsadimlarimizga yetishishimizga katta yoʻl ochadi va koʻmaklashadi. Davlatimizda bu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun esa albatta birgalikda amaliy sifatli natijalarga erishishimiz kerakligi inobatga olinadi. Rivojlangan davlatlar maktablari innovatsion-integratsiyalashgan ilgʻor pedagogik texnologiyalari va pedagogik tajribalarini taʼlimga tadbiq etilmoqda.

Jamiyatimizni rivojlantirish, yangilanishlarda yoshlar taʼlim-tarbiyasini toʻgʻri va oʻz vaqtida sifat-samaradorligiga eʼtibor qaratish, yuqori natijalar beruvchi uslublardan foydalanishimiz lozim boʻladi. Taʼlim-tarbiyada samarali islohotlarni amalda qoʻllash,

ilm-texnika taraqqiyoti muhitida ta'limga ijokorlikka keng yo'l ochish, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda, uning muhim tizimlarini yaratishda chet el tajribalarini qo'llash ham muvaffaqiyatlarimizni belgilamoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi mamlakatning ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy omil sifatida qaraladi. Darhaqiqat kelajagimiz yoshlar qo'lida, maktabda esa ular ta'lim-tarbiya oladi va shaxs sifatida shakllanib, kasb-hunarga yo'naltiriladi. Shu o'rinda maktablardagi ta'lim-tarbiya tizimi yoshlar iste'dodini oshirish bilan kelajagi uchun asos bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'zining ¹“Yangi O'zbekiston taraqqiyoti” asarida “Ishonchim komilki dunyo hamjamiyati bilan iqtisodiy ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish borasidagi birgalikdagi say-harakatlarimiz, do'stlik aloqalari va ko'p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash bilan birga, yurtimizga yangi sivilizatsion yuksalish uchun ham xizmat qiladi” bu borada mamlakatlararo ta'limda ham integratsiyani tashkillashtirsak ta'lim sifatiga albatta ijobiy ta'sir qiladi. Shaxsning shakllanishida ta'lim-tarbiya jarayoni muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham ta'lim-tarbiya jarayoni murakkab va anchagina ma'suliyat talab qiladigan jarayondir. Sog'lom avlod tarbiyasi oson ish emas, u har bir inson, har bir oila, butun jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim-tarbiya orqali yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs, yuksak darajada kasb-hunar egasi sifatida shakllantirishimiz zaruriy ekanligi har qadamda sezilib turibdi. Bu esa biz pedagoglarga o'zgacha bir ma'suliyat yuklaydi. Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun o'quvchilarning barcha vaziyat va holatlarda to'g'ri yo'l tutishini istashi hamda to'g'ri yo'l tutishi uchun kasb-hunar egasi sifatida shakllantirishimiz uning nima qilishini bilishi, o'zi hurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganini ko'rishi va o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishini mashq qilishi zarur.

¹ Sh.Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston taraqqiyoti” asari Toshkent 2021

Yoshlar iste'dodini rivojlantirish, izlanuvchan, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida tashkil etilishini ta'minlash uchun keng imkoniyat yaratilmoqda. Mazkur sa'y-harakatlarning tub zamirida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, kuchli mutaxassislarning bugungi va kelajak uchun ma'nan va jismonan barkamol avlod bo'lib, kuchli o'z kasbi va hunari orqali jamiyat rivojiga rivoj qo'sha olishi lozimligi kabi ijobiy tajribalarga ega bo'lishlari ham nazarda tutiladi. Bundan tashqari dunyoning bir qancha rivojlangan mamlakatlarida AQSH, Yaponiya, Singapur, Hindiston, Xitoy, Finlandiya kabi xorijiy pedagogik tajribalarini o'rganib, ta'lim-tarbiya tizimimizga tadbiq etilmoqda. Bu o'rinda albatta yurtimiz ta'lim-tarbiya sohasida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish va bu sohada raqobatbardosh bo'la olish, rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o'rganish va Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tadbiq qilish hozirgi kunda pedagogikaning asosiy vazifalaridan biridir. Agar yoshlarga bolalikdan to'g'ri ta'lim-tarbiya berilsa, ularning mavjud o'zida bor iqtidorlari vaqtida aniqlanib, rivojlantiriladi. Aksincha, ta'lim-tarbiyaga yetarli e'tibor berilmasa, iste'dod so'nib qolishi yoki noto'g'ri yo'nalishda namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli, oilada, ta'lim muassasalarida va ijtimoiy muhitda yoshlarga berilayotgan tarbiyaning sifati bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aynan ta'lim-tarbiya orqali iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyatga foydali, ma'naviy yetuk va insonparvar, adolatli, vatanparvar shaxslar etib voyaga yetkazish mumkin.

Yoshlarda yuqori iste'dod va qobiliyatlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi tarbiyaviy omillar, usullar va pedagogik mexanizmlar majmuasi har shaxsning bilim, ko'nikmalari va malakalarini sayqallash orqali takomillashuviga yo'nalishlarni ochadi. Jumladan, oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan tarbiyaviy yondashuvlar, ustoz-shogird munosabatlari hamda ijtimoiy muhitning yoshlar iste'dodini rivojlantirishdagi o'ziga xos jihatlari rivojlantiruvchi jarayonlarni to'g'ri tashkil

etishga va sifatli ijobiy natijalarni amaliyotda foydali xususiyatlarni taqdim etish, erishishga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitning yoshlar iste'dodini rivojlantirishdagi ta'sirini tahlil qilish, tarbiyaning samarali shakl va usullarini aniqlash hamda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ham ko'zda tutiladi. Nazariy va amaliy tajribalar chet el mamlakatlaridagi (xususan, Finlandiya ta'limi tizimini) ilm fanidagi eng so'nggi va yuqori samaradorlikka ega kasb-hunar maxsus namunali maktablar pedagogik texnologiyalari asosida umumta'lim maktablarida ta'limni tashkil etish jarayonida tizimli ravishda qo'llashing metodologik asoslarini ishlab chiqilganligi, ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etishda yordam berishi bilan izohlanadi. Ta'lim muassasalari, pedagoglar va tarbiyachilar faoliyatida amaliy foydalanish imkoniyati yaratiladi. Nazariy va amaliy tajribalarni boyitish, yangi zamonaviy innovatsion-integratsion ma'lumotlar bilan to'ldirish, amaliyotda qo'llay olish ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan metod va pedagogik texnologiyalar umumta'lim maktablarida ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etishda yordam berishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti" asari Toshkent 2021-yil,
2. "Xorijda ta'lim" G'aniyev J.G' Sharq 1995-yil,
3. N. Usmonov "Yaponiyada bola tarbiyasi" Ma'rifat 2022-yil,
4. Ivanova.A H.T.Omonova, N.X.Xo'jayev, S.AMadyarova, E.U.Eshchonov
"Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat ,J.Yo'ldoshev "Yangi pedagogik texnologiya:yo'nalishlari, muammolari, yechimlari 1999-yil,
5. M.Ochilov "Yangi pedagogik texnologiyalar" 2000-yil,
6. M.Sayidaxmedov "Yangi pedagogik texnologiyalar" 2002-yil,
7. M.Sayidaxmedov "Ta'limda harakatlantiruvchi kuch", Беспалко педагогика и прогрессивные технологии обучение" 1989.
8. Usmonboyeva M.,Mahmudova A. Yoshlar tarbiyasida moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligining shakllanganlik darajasini aniqlash metodikasi. Metodik qo'llanma-Toshkent 2010 yil